



SAMARQAND PALAEOLIT DAVRIDAN LAVHALAR

SH.A.Tojiyev

Samarqand davlat universiteti doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqola Samarqand shahri va uning tumanlarigacha bo'lgan ibtidoiy madaniyat tarixining paleolitdan to bronza davrigacha bo'lgan dinamik rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi boy va yangi arxeologik materiallarni yakunlash asosida tuzilgan.

Kalit so'zlari: Samarqand, Omonqo'ton, Takalisoy, Go'rdora, Qo'tirbuloq, Zirabuloq, Paleolit, Bronza.

Аннотация: В данной работе, на основе обобщения богатого, нового археологического материала рассматриваются вопросы динамики развития истории первобытной культуры доурбанистического Самарканда и его окрестностей начиная с палеолита и эпоху бронзы.

Ключевые слова: Самарканд, Амонкутан, ТакалISOY, Гордора, Кутирбулак, Зирабулак, Палеолит, Бронза

Mamlakatimizning azaldan muhim tarkibiy sarhadlarini tashkil qiluvchi Zarafshon havzasi hududida ajdodlarimizning bir necha ming yilliklarga teng, boy tarixi mavjud. Asrlar osha ilm-fan va ma'rifat markazi bo'lib, jahon uzra madaniyat durdonalarini tarqatib kelgan yirik markaziy shaharlar shakllangan. Samarqand insoniyat sivilizatsiyasining qadimiy shahri va markazlaridan biri bo'lib, jahon madaniyati, san'ati va fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo'shgan shaharlardan biridir. Bu xususiyat jahon afkor ommasi tomonidan



ham alohida qayd qilingan. Samarqand o'zining qariyb uch ming yil tarixi jarayonida o'z boshidan ne-ne larzali tarixiy silsilalarni kechirmadi deysiz, ammo beshafqat davrning shiddatli sinovlaridan omon qolib, ajdodlarimizning uzoqni ko'zlab yaratgan, intellektual merosini, fan va madaniyatimizning yuksak ibratli fazilatlarini avlodlarga avaylab etkazib kelish jarayonida ham xizmati buyuk va mashhur shahardir (Исамитдинов М., 2002).

Samarqand tarixi, taraqqiyoti haqida turli davrlarda turlicha qarashlarni o'zida mujassamlashtirgan o'nlab asarlar yaratilgan. Bu asarlarda asosan shahar tarixi, qadimgi va o'rta asrlar davrlariga bag'ishlangan bo'lib, uning eng qadimgi, ya'ni ibtidoiy madaniyat tarixi haqida to'laroq, mukammal asar esa hamon yaratilgan emas. To'g'ri, bu borada ham ayrim urinishlar bo'lgan. Masalan, A.Asqarov, D.Lev tomonlaridan «Samarqand territoriyasida odamzot hayotining eng qadimgi izlari» maqolasida o'tgan asrning 70-yillarigacha bo'lgan davrdagi ma'lumotlar qisqacha yoritilgan ((Асқаров А., Лев Д., 1971, 21-29).

Bundan tashqari, Samarqand shahri hududida va uning atrof muzofotlarida o'rganilgan ayrim yodgorliklar haqida ham bir necha monografiyalar va ilmiy maqolalar nashr qilingan (Джуракулов М.Д., 1987; Холматов Н.У., 1991; Сулейманов Р.Х., Тошкенбоев Н.Х., 1980).[1] Lekin Samarqandning ibtidoiy davr tarixi, uning o'ziga xos rivojlanish tarixi haqida hamon yaxlit bir asar yaratilganicha yo'q. «Samarqand tarixi» kitobining nashr qilinganiga ham 40 yildan ko'proq vaqt o'tdi. Keyingi davrlarda shaharning ibtidoiy madaniyat tarixini mukammalroq, atroflicha ta'riflab beradigan yangi yodgorliklar kashf qilindi, xullas, bu borada serob arxeologik manbalar, yangi-yangi topilmalar qo'lga kiritildi. Samarqandning eng qadimgi davrlariga doir ilmiy ishlarni hamda so'nggi yillarda yig'ilgan manbalarni yangi yondashuv asosida yaxlit bir asar sifatida yaratish davr talabidir. Ushbu satrlarda aynan shu muammolarni qisqacha yoritish nazarda tutilgan.

Samarqand shahri hududida va uning tevarak-atrofi muzofotlarida odamzod juda qadimdan, ya'ni paleolit (qadimgi tosh asri) davridan yashab kelganligini tadqiqotlar to'liq



isbotlagan. Zarafshon havzasining, ayniqsa, uning bevosita Samarqand shahri bilan bog'liq o'rta oqimi mintaqasi o'zining jo'g'rofik joylashishi, tabiiy iqlimi va ekologik sharoitining qadimdan mu'tadilligi bilan inson jamoalari e'tiborini azaldan jalb qilib kelgan. Samarqandning ilk tarixidan guvohlik beruvchi ma'lumotlar, aslida XIX asrning 80-yillariga borib taqaladi. Jumladan, 1881 yilda Afrosiob (Samarqand)ning sharqiy qismidan Samarqand – Toshkent yo'lini qurish vaqtida geolog va yozuvchi D.L.Ivanovning paleolit davri chaqmoqtosh o'zagini, N.I.Veselovskiy esa shu atrofdan vulqon (obsidion) toshidan ishlangan paleolit qirg'ichchasini topgan edi (Веселовский М.В., 1942, №2; Джуракулов М.Д., 2000, 10).[2]

Jumladan, 1930 yili Samarqand janubidan o'tadigan Darg'om kanali qirg'oqlaridan B.M.Kastalskiyning mikrolit qurollarini topganligini 1939 yili Siyobcha soyining o'ng qirg'og'ida Samarqand paleolit makoni, undan sal pastroqda va shu atrofdagi avvalgi Ovrainaya ko'chasi bo'ylab, 1940 yili o'rta paleolit davriga doir ikkita qo'l paleolit chopqisi topilmalari (Григорьев Г.В., 1940, 89-90) shu yili esa N.G.Xarlamov avvalgi Ivanova parki hududida, Siyobcha arig'ining o'ng qirg'og'ida kichik qazishmalar o'tkazib, paleolit davri mehnat qurollarini topgan edi (Самарқанд давлат музейи архиви. Ҳисобот. №297, коллекция №А17)[3] O'sha yili kuzida bu makonda M.V.Voevodskiy va V.V.Shumovlar ham qazishmalar o'tkazib, yirik hayon suyaklari, asosan, yovvoyi ot suyaklari bilan aylantirib olingan gulxan qoldig'i va bir necha mehnat qurollari, tosh uchirindilari topishib, bu erda paleolit kishilarining katta makoni mavjudligini aniqlangan edi (Воеводский М.В., 1942, №2; Шишкин В.А., 1969, 112-113) [4].1963 yili Dahbet ko'chasida yangi bino qurilishi davomida o'rta paleolit mehnat qurollari, 1969 yili Registon maydonidagi muzey qurilish ishlari davomida topilgan tosh qurollar hamda 1969-1970 yillarda Afrosiobning shimoliy qismida bajarilgan tadqiqot ishlari davomida tosh asrining turli davriga doir ashyolar, shuningdek, Darg'om kanali bo'ylab 1960 yilda O.Obelchenko va 1985 yilda B.Botirov tomonidan o'tkazilgan dala kuzatuv vaqtida, shuningdek, boshqa tadqiqotchilarning yiqqan topilmalari ham Samarqand va u bilan bog'liq atrof hududlarda



odamzot jamoalari o'rta paleolit (100-40 ming yillar bundan avval) davridan e'tiboran yashab, madaniyat yaratib kelganligidan guvohlik beruvchi dastlabki manbalarni qo'lga kiritgan edilar. (Жўракулов М., 2000, 11)[5].

Binobarin, Samarqand va uning bilan bog'liq muzofot urbanik davrgacha bo'lgan ko'hna tarix haqida ma'lumot beruvchi va yuqorida zikr etilgan arxeologik topilmalar ibtidoiy davr madaniyat izlaridan guvohlik beruvchi dastlabki ma'lumotlar hisoblansa-da, kelajakda bu atrofda keng ko'lamda rejali tadqiqot ishlarini yo'lga qo'yishni taqozo qilardi. Bu kabi maqsadli tadqiqot ishlari 1944 yildan boshlanib, Samarqand davlat universiteti olimlari, xususan, arxeolog D.N.Lev unga tashabbuskor bo'lgan edi. Uni qiyinchilik yillarda I.M.Mo'minov, A.V.Shishkin, keyinchalik Ya.G'.G'ulomov, M.Aminov singari rahbar olimlar qo'llab-quvvatlaganligi tufayli D.N.Lev Samarqand atrofida keng ko'lamda arxeologik dala tadqiqot ishlarini boshlab, qiziqarli natijalarga erishdi. D.N.Lev arxeologik tadqiqot ishlarni universitet tarixchi talabalari dala amaliyoti bilan bog'liq holda olib borgan bo'lsa-da, bu ish yaxshi samara berdi. Lev (1905-1969) Sankt-Peterburg arxeologiya maktabining yirik namoyondalaridan biri, atoqli olim V.A.Gorodtsovning shogirdi edi. Uni 1944 yili muzey ilmiy xodimi sifatida faoliyat yuritib yurgan bir vaqtda Muso Muminov universitetga ishga taklif qilgan. U esa o'zining butun ilmiy, pedagogik, tarbiyaviy faoliyati bilan bu ishonchni to'la oqladi va ibtidoiy madaniyatimiz tarixini qunt ilan o'rganish borasida katta ilmiy kashfiyotlarni yuzaga chiqardi. U universitetimiz sha'niga iftixor keltirgan ilmu fan va ta'limning jonkuyari sifatida faoliyat yuritdi. Shu boisdan ham uni Ya.G'.G'ulomov, I.M.Mo'minov, V.A.Shishkinlar doim hurmat qilar, qo'llab-quvvatlab turardi.

Omonqo'ton paleolit davri g'orining ochilishi muhim ahamiyatga ega bo'ldi. G'or karidor sifat bo'lib, uzunligi 29,5 metr va odam bemalol yursa bo'ladigan makon. Yodgorlik 10 yil davomida (1947-1957) D.N.Lev rahbarligidagi SamDU arxeoloik guruhi tomonidan qazib o'rganildi. (Лев Д.Н., 1949; 1949, №6; 1949, №1). Qazish ishlari davomida har yili tarix fakulteti talabalari ishtiroki ta'minlandi. Shuningdek, o'sha davr



odamlariga zamondosh bo'lgan boy hayvonot dunyosi qoldiqlari topilgan bo'lib, bu manbalar nafaqat neandertal jamoalari turmushi, shuningdek, to'rtlamchi davr tabiati, iqlimi, o'simlik dunyosi, ekologiyasi kabi masalalarni oydinlashtirishda ham muhim manba hisoblanadi. Omonqo'ton sayyoh ovchilari ovchilik va terim-termachilik bilan tirikchilik qilishganlar. G'orda taxminan 10-15 kishidan iborat bo'lgan bir guruh ovchilar yashagan. G'ordan sayyoh ovchilar o'zlarining bu muzofotdagi asosiy qo'nim lageri sifatida foydalanishganlar. Darhaqiqat, P.P.Efimenko o'rta paleolit davrida «u yoki bu tarzda sayyoh ovchilarning muayyan tarzda qo'nim yashashga o'tishi sezila boshlandi», degan xulosasini bergan edi (Ефименко П.П., 1953, 239)[6]. Omonqo'tonlik sayyoh ovchilar qo'shni muzofotlarda yashagan guruhlar bilan muayyan o'zaro madaniy aloqalar o'rnatganligini kuzatish mumkin. Masalan, bu makondan topilgan mehnat qurollarining yasalishi texnik-texnologiyasi ko'proq Zarafshon vohasining Qo'tirbuloq, Zirabuloq makonlari ashyolariga o'xshashligi kuzatilingan (Ташкенбоев Н.Х., Сулейманов Р.Х., 1980, 68)[7]. Bundan tashqari, Omonqo'ton tosh industriyasini D.N.Lev Teshiktosh, Amir Temur g'or makonlariga yaqinligini e'tirof qiladi (Лев Д.Н., 1960)[8]. Makon o'rta paleolit davrining rivojlangan bosqichiga doirligi olimlar tomonidan tan olingan (Панов В.А., Несмянов С.А., 1973, 87)[9].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Джуракулов М.Д., 1987; Холматов Н.У., 1991; Сулейманов Р.Х., Тошкенбоев Н.Х., 1980
2. Веселовский М.В., 1942, №2; Джуракулов М.Д., 2000, 10
3. Самарканд давлат музейи архиви. Ҳисобот. №297, коллекция №А17
4. Воеводский М.В., 1942, №2; Шишкин В.А., 1969, 112-113
5. Жўракулов М., 2000, 11
6. Ефименко П.П., 1953, 239
7. Ташкенбоев Н.Х., Сулейманов Р.Х., 1980, 68
8. Ранов В.А., Несмянов С.А., 1973, 87
9. Лев Д.Н., 1949; 1949, №6; 1949, №1